

RAQAMLI IQTISODIYOT SHAROITIDA MOLİYAVIY BOSHQARUV TIZIMINING RIVOJLANISH XUSUSIYATLARI

Murodov Sherzod Tursunaliyevich

O'zbekiston Respublikasi Mudofaa vazirligi

Korrupsiyaga qarshi ichki nazorat bo'limi boshlig'i, mayor

<https://doi.org/10.5281/zenodo.21935336>

Annotatsiya. Ushbu tezisda raqamli iqtisodiyot sharoitida xo'jalik yurituvchi subyektlar faoliyatida moliyaviy texnologiyalardan foydalanishning iqtisodiy mazmuni, ularni joriy etishning asosiy yo'nalishlari hamda moliyaviy boshqaruv samaradorligiga ta'siri yoritilgan. FinTech yechimlari asosida to'lovlar, hisob-kitoblar, moliyalashtirish, pul oqimlarini boshqarish va moliyaviy monitoring jarayonlarini raqamlashtirish imkoniyatlari asoslangan. Shuningdek, xo'jalik yurituvchi subyektlar faoliyatiga moliyaviy texnologiyalarni integratsiya qilish mexanizmini takomillashtirish bo'yicha takliflar ishlab chiqilgan.

Kalit so'zlar: raqamli iqtisodiyot, moliyaviy texnologiyalar, FinTech, xo'jalik yurituvchi subyekt, raqamli to'lov, elektron hisob-kitob, moliyaviy boshqaruv, raqamli platforma, sun'iy intellekt, Big Data.

Raqamli iqtisodiyotning jadal rivojlanishi xo'jalik yurituvchi subyektlarning moliyaviy faoliyatini tashkil etish va boshqarish usullarini tubdan o'zgartirmoqda. An'anaviy moliyaviy operatsiyalarning raqamli muhitga ko'chirilishi, elektron to'lov vositalari, masofaviy bank xizmatlari, bulutli texnologiyalar, sun'iy intellekt, Big Data va blokcheyn texnologiyalarining rivojlanishi korxonalar uchun yangi iqtisodiy imkoniyatlarni yuzaga keltirmoqda. Mazkur sharoitda moliyaviy texnologiyalardan samarali foydalanish xo'jalik yurituvchi subyektlarning raqobatbardoshligini oshirishning muhim omillaridan biriga aylanmoqda.

Moliyaviy texnologiyalar (FinTech) moliyaviy xizmatlarni yaratish, taqdim etish va ulardan foydalanish jarayonlarini raqamli texnologiyalar asosida takomillashtirishga qaratilgan innovatsion yechimlar majmuasini ifodalaydi. Xo'jalik yurituvchi subyektlar faoliyatida FinTech yechimlaridan foydalanish nafaqat to'lov va hisob-kitob operatsiyalarini tezlashtiradi, balki moliyaviy resurslardan foydalanish samaradorligini oshirish, xarajatlarni optimallashtirish va boshqaruv qarorlarini tezkor qabul qilish imkonini ham beradi.

Raqamli to'lov tizimlari xo'jalik yurituvchi subyektlarning kontragentlar bilan hisob-kitoblarini tezlashtirishga, elektron invoicing va avtomatlashtirilgan hisob tizimlari esa moliyaviy operatsiyalar bilan bog'liq vaqt va tranzaksiya xarajatlarini qisqartirishga xizmat qiladi. Big Data texnologiyalari asosida katta hajmdagi moliyaviy ma'lumotlarni qayta ishlash korxonaning moliyaviy holatini chuqur tahlil qilish imkoniyatini kengaytirs, sun'iy intellekt texnologiyalari pul oqimlarini prognozlash, moliyaviy xatarlarni aniqlash va boshqaruv qarorlarini qo'llab-quvvatlashda muhim ahamiyat kasb etadi.

Shu bilan birga, xo'jalik yurituvchi subyektlar faoliyatida moliyaviy texnologiyalarni joriy etishda bir qator muammolar mavjud. Ular qatoriga korxonalarning raqamli infratuzilma bilan ta'minlanganlik darajasidagi farqlar, moliyaviy va raqamli savodxonlikning yetarli emasligi, mavjud axborot tizimlarining o'zaro integratsiyasi bilan bog'liq muammolar, kiberxavfsizlik xatarlari hamda FinTech yechimlarini joriy etish uchun talab etiladigan boshlang'ich xarajatlarni kiritish mumkin.

Mazkur muammolar xo'jalik yurituvchi subyektlarda moliyaviy texnologiyalardan foydalanishni alohida raqamli vositalarni joriy etish shaklida emas, balki o'zaro bog'langan

kompleks mexanizm asosida tashkil etish zaruratini yuzaga keltiradi. Ushbu mexanizmni “raqamli tayyorgarlikni baholash – FinTech yechimini tanlash – moliyaviy jarayonlarga integratsiya qilish – raqamli monitoring – samaradorlikni baholash” ketma-ketligi asosida shakllantirish maqsadga muvofiq.

Birinchi bosqichda xo‘jalik yurituvchi subyektning moliyaviy texnologiyalarni qabul qilishga tayyorgarlik darajasi baholanadi. Bunda raqamli infratuzilma, moliyaviy boshqaruv tizimi, xodimlarning raqamli kompetensiyasi, axborot xavfsizligi va moliyaviy operatsiyalarning raqamlashtirilganlik darajasini hisobga olish lozim. Ikkinchi bosqichda korxonaning faoliyat xususiyatidan kelib chiqib tegishli FinTech vositalari tanlanadi. Uchinchi bosqichda tanlangan texnologiyalar buxgalteriya hisobi, to‘lov, moliyalashtirish, pul oqimlarini boshqarish va boshqa biznes jarayonlari bilan integratsiya qilinadi.

Keyingi bosqichda moliyaviy operatsiyalarni real vaqt rejimida monitoring qilish tizimini shakllantirish muhim hisoblanadi. Bunda raqamli boshqaruv paneli orqali pul tushumlari va chiqimlari, debitor va kreditor qarzdorlik, likvidlik, tranzaksiya xarajatlari hamda moliyaviy xatarlarni kuzatib borish imkoniyati yaratiladi. Natijada korxona rahbariyati moliyaviy holatdagi o‘zgarishlarga tezkor munosabat bildirish va asoslangan boshqaruv qarorlarini qabul qilish imkoniyatiga ega bo‘ladi.

Moliyaviy texnologiyalardan foydalanish samaradorligini baholashda faqat moliyaviy natijalarni emas, balki raqamli transformatsiya natijalarini ham hisobga olish zarur. Shu sababli baholash tizimida tranzaksiya xarajatlarining kamayishi, hisob-kitoblarni amalga oshirish vaqtining qisqarishi, pul oqimlarini boshqarish aniqligi, raqamli to‘lovlarning ulushi, moliyaviy ma‘lumotlarni qayta ishlash tezligi va boshqaruv qarorlarini qabul qilish tezkorligi kabi ko‘rsatkichlardan foydalanish maqsadga muvofiq.

Xo‘jalik yurituvchi subyektlarning moliyaviy faoliyatini raqamlashtirishda yagona raqamli moliyaviy boshqaruv platformasini shakllantirish alohida ahamiyatga ega. Bunday platformada bank xizmatlari, elektron to‘lovlar, elektron hisob-fakturalar, buxgalteriya tizimlari, soliq xizmatlari hamda moliyaviy tahlil vositalarining o‘zaro integratsiyasi ta‘minlanishi lozim. Natijada turli axborot tizimlarida shakllanadigan ma‘lumotlarni yagona raqamli muhitda qayta ishlash va ulardan boshqaruv qarorlarini qabul qilishda foydalanish imkoniyati kengayadi.

Tadqiqot doirasida xo‘jalik yurituvchi subyektlar faoliyatida moliyaviy texnologiyalardan foydalanish mexanizmini takomillashtirish bo‘yicha quyidagi ustuvor yo‘nalishlarni amalga oshirish maqsadga muvofiq:

1. xo‘jalik yurituvchi subyektlarning FinTech texnologiyalaridan foydalanishga raqamli tayyorgarlik darajasini kompleks baholash tizimini ishlab chiqish;
2. korxonalarning moliyaviy va buxgalteriya tizimlarini bank, soliq va elektron to‘lov platformalari bilan integratsiyalash;
3. sun‘iy intellekt va Big Data texnologiyalari asosida pul oqimlari hamda moliyaviy xatarlarni prognozlash mexanizmlarini rivojlantirish;
4. moliyaviy operatsiyalarni real vaqt rejimida kuzatishga imkon beruvchi raqamli monitoring tizimini shakllantirish;
5. moliyaviy texnologiyalardan foydalanish samaradorligini iqtisodiy va raqamli ko‘rsatkichlar asosida baholash mexanizmini takomillashtirish.

Xulosa. Raqamli iqtisodiyot sharoitida moliyaviy texnologiyalardan samarali foydalanish xo'jalik yurituvchi subyektlar moliyaviy boshqaruvining sifat jihatdan yangi bosqichga o'tishini ta'minlaydi. FinTech yechimlarini moliyaviy jarayonlarga kompleks integratsiya qilish hisob-kitoblarni tezlashtirish, tranzaksiya xarajatlarini kamaytirish, pul oqimlari ustidan nazoratni kuchaytirish va moliyaviy xatarlarni o'z vaqtida aniqlash imkonini beradi. Shu nuqtayi nazardan, moliyaviy texnologiyalardan foydalanishni “raqamli tayyorgarlik – texnologik integratsiya – real vaqt monitoringi – samaradorlikni baholash” tamoyili asosida tashkil etish xo'jalik yurituvchi subyektlarning raqamli transformatsiyasini jadallashtirish va iqtisodiy samaradorligini oshirishga xizmat qiladi.

Adabiyotlar, References, Литературы:

1. World Bank. *Fintech and the Future of Finance*. Washington, D.C.
2. International Monetary Fund, World Bank. *The Bali Fintech Agenda*. Washington, D.C., 2018.
3. Bank for International Settlements. *Innovation, Fintech and AI*. Basel.
4. O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki. *2025-yil yillik hisoboti*. Toshkent, 2026.
5. O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki. *2026–2030-yillarda moliyaviy texnologiyalarni rivojlantirish strategiyasi*. Toshkent, 2026.